

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI HUDUDIIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI

Sharipov Rasulbek Siddiqovich

GGT MChJ Qishloq xo‘jaligi masalalari
bo‘yicha bosh direktor o‘rinbosari

E-mail: sharipov_r@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot paxta-to‘qimachilik klasterlarining hududiy rivojlantirish mezonlari va rivojlantirish modellari tahliliga bag‘ishlangan. Klasterlar agrar va sanoat sektorlarini integratsiyalash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy bandlikni ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari hududiy-iqtisodiy salohiyat, texnologik integratsiya va boshqaruv mexanizmlarining uyg‘unligi barqaror rivojlanish uchun hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, resurslardan kompleks foydalanish, innovatsion-integratsion yondashuv, hududiy diversifikatsiya va raqamli boshqaruv modellari klaster tizimining samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynashi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klasterlari, hududiy rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik integratsiya, innovatsion-integratsion model, eksport salohiyati.

Аннотация

Данное исследование посвящено анализу критериев территориального развития и моделей развития хлопково-текстильных кластеров. Кластеры играют стратегическую роль в интеграции сельскохозяйственного и промышленного секторов для повышения производственной эффективности, расширения экспортного потенциала и обеспечения занятости в регионах. Результаты исследования показывают, что гармонизация регионально-экономического потенциала, технологической интеграции и механизмов управления является решающим фактором для устойчивого развития. Кроме того, модели комплексного использования ресурсов, инновационно-интеграционная, региональная диверсификация и цифровое управление существенно способствуют повышению эффективности кластеров и расширению их экспортного потенциала.

Ключевые слова: хлопково-текстильные кластеры, территориальное развитие, производственная эффективность, технологическая интеграция, инновационно-интеграционная модель, экспортный потенциал.

Abstract

This study is devoted to the analysis of the territorial development criteria and development models of cotton-textile clusters. Clusters play a strategic role in integrating the agricultural and industrial sectors to enhance production efficiency, expand export potential, and ensure regional employment. The research findings indicate that the harmonization of regional-economic potential, technological integration, and governance mechanisms is a critical factor for sustainable

development. Furthermore, models such as comprehensive resource utilization, innovation-integration, regional diversification, and digital management significantly contribute to increasing cluster efficiency and expanding export capacity.

Keywords: cotton-textile clusters, territorial development, production efficiency, technological integration, innovation-integration model, export potential.

KIRISH

Paxta-to‘qimachilik klasterlari mamlakat iqtisodiyotining muhim sektori bo‘lib, agrar va sanoat tarmoqlarini integratsiyalash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy bandlikni ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda global bozor talablari, innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi klaster tizimining barqarorligi hamda samaradorligini oshirish zaruratini kuchaytirdi.

Hududiy rivojlantirish mezonlarini aniqlash va klasterlarni rivojlantirish modellari ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion yechimlarni tatbiq etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, paxta-to‘qimachilik klasterlarining hududiy rivojlanishi bo‘yicha tizimli tahlil va modellashtirish amaliyotda katta dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonida belgilangan vazifalar doirasida qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, qishloq xo‘jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish hamda hosildorlik ko‘rsatkichlarini paxta bo‘yicha o‘rtacha 45–50 sentnerga, g‘alla bo‘yicha 80–85 sentnerga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan [1]. Ushbu vazifalar klaster tizimining rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirishda asosiy yo‘nalishlarni belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to‘qimachilik klasterlari agrar va sanoat sektorlarini integratsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish nuqtai nazaridan keng tadqiq etilgan. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik tizimlari va samaradorligi turli ilmiy ishlarda o‘rganilgan. B.A. Paluanov va boshqalar [2] siqilgan ip-gazlama tizimi parametrlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. C. Bozarth va hamkorlari [3] esa sanoat klasterlari nazariyasi orqali ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish va yetkazib berish zanjirini optimallashtirishni tahlil qiladi. K.E. Radjapov va B.K. Erkaeva [4] klasterlarning shakllanish xususiyatlari va tashkilot modelini tahlil qilib, hududlararo integratsiya hamda boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatini ta‘kidlaydilar. T.L. Khalikov [5] paxta-to‘qimachilik sektorining mintaqaviy iqtisodiyotdagi rolini, resurslardan samarali foydalanish va sifatli ishlab chiqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. B.A. Davlyatov [6] esa klasterlar orqali ish o‘rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Shu asosda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining rivojlanishi hududiy-iqtisodiy salohiyat, texnologik integratsiya va boshqaruv mexanizmlariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Ushbu adabiyotlar tahlili tadqiqotning dolzarbligini yanada tasdiqlaydi: paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali mamlakatning agrar va sanoat integratsiyasi mustahkamlanadi, ishlab chiqarish samaradorligi hamda eksport salohiyati oshadi, shuningdek, hududiy bandlik va iqtisodiy farovonlikni ta‘minlash imkoniyati kengayadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda paxta-to‘qimachilik klasterlarining hududiy rivojlanish mezonlari va rivojlantirish modellari o‘zaro taqqoslab tahlil qilindi. Asosiy e‘tibor hududiy-iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish zanjiri, texnologik integratsiya hamda boshqaruv mexanizmlarining klaster samaradorligiga ta‘sirini aniqlashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to‘qimachilik klasterlari mamlakatning sanoat va agrar sektorlarini o‘zaro integratsiyalash orqali iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta‘minlashda, eksport salohiyatini kengaytirishda hamda hududiy bandlik darajasini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Klaster tizimi paxtachilik, ip-gazlama ishlab chiqarish va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini eksportga yo‘naltirish kabi bosqichlarni yagona qiymat zanjiriga birlashtiradi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va qo‘shimcha qiymat yaratish imkonini beradi [7].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining samarali faoliyat yuritishi bir qator hududiy, iqtisodiy va tashkiliy omillar uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Eng avvalo, klasterning hududiy joylashuvi strategik jihatdan muhim bo‘lib, xomashyo bazasiga yaqinlik, suv va energiya resurslariga kirish imkoniyati, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi ishlab chiqarish xarajatlari hamda raqobatbardoshlikka bevosita ta‘sir etadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish zanjiri bosqichlarining uyg‘unligi, ya‘ni paxtani yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot eksportigacha bo‘lgan barcha jarayonlarning muvofiqlashtirilganligi klasterning barqaror iqtisodiy mexanizmini shakllantiradi.

Bundan tashqari, klasterlarning infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasi ham ularning rivojlanish sur‘atlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Elektr energiyasi, transport, aloqa va texnologik infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda klaster tizimi to‘liq quvvat bilan ishlamaydi. Shu sababli, klasterlarni joylashtirishda sanoat zonalari, logistika markazlari va innovatsion xizmatlar tizimining mavjudligi muhim tanlov mezon sifatida qaraladi (1-jadval).

Hududiy-iqtisodiy salohiyat paxta-to‘qimachilik klasterlarining barqaror rivojlanishida asosiy omil sifatida e‘tiborga loyiqdir. Xomashyo yetishtirish hududi, mehnat resurslarining mavjudligi hamda transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydi. Transport xarajatlarini kamaytirish va logistika zanjirini qisqartirish mahsulot tannarxini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bilan birga, mahalliy aholi bandligi, mehnat resurslarining malakasi va hududdagi ishlab chiqarish quvvatlari hududiy iqtisodiy salohiyatni

belgilovchi muhim ko'rsatkichlar sifatida qaraladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda klasterlar yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritadi, bu esa eksport salohiyatini oshirishga va hududiy bandlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Paxta-to'qimachilik klasterlarini hududiy rivojlantirishning asosiy mezonlari¹

№	Mezon nomi	Tavsif	Baholash ko'rsatkichlari
1	Hududiy-iqtisodiy salohiyat	Hududda mavjud tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish resurslarining miqdori va ulardan foydalanish samaradorligi.	YaIM hajmi, bandlik darajasi, transport va energetika infratuzilmasi rivojlanish ko'rsatkichi.
2	Xomashyo bazasi va ishlab chiqarish zanjiri	Paxta xomashyosini yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining hududiy uyg'unligi.	Paxta hosildorligi, qayta ishlash quvvatlari, ishlab chiqarish zanjiri to'liqligi indeksi.
3	Texnologik integratsiya	Klaster ichidagi ishlab chiqarish bosqichlari o'rtasida resurs, ma'lumot va innovatsion yechimlar almashinuvining darajasi.	Texnologik yangilanish darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi, energiya tejamkorlik ko'rsatkichi.
4	Boshqaruv va hamkorlik mexanizmlari	Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy hamkorlikning institutsional shakllari va ularni muvofiqlashtirish tizimi.	Davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni, kooperatsiya darajasi, boshqaruv samaradorligi indeksi.
5	Investitsion va innovatsion faollik	Yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish faoliyati.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, innovatsion loyihalar soni, modernizatsiya ulushi.
6	Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir	Klaster faoliyatining hududiy bandlik, aholi daromadlari va eksport salohiyatiga ta'sir darajasi.	Ish o'rinlari soni, o'rtacha ish haqi, eksport ulushi va mahalliy ishlab chiqarish ha

Xomashyo bazasi va ishlab chiqarish zanjiri to'liqligi klasterning ichki integratsiyasi hamda raqobatbardoshligini belgilaydi. Paxta yetishtirishdan boshlab ip-gazlama ishlab chiqarish, bo'yash, tayyor trikotaj mahsulotlarini tayyorlash va eksportgacha bo'lgan jarayonlarning yagona tizimda uyg'unlashuvi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi hamda resurslardan samarali foydalanishga imkon yaratadi. To'liq ishlab chiqarish zanjiri ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va klaster ichida qo'shilgan qiymat yaratish darajasini yuqori qiladi.

¹ Muallif ishlanmasi

Texnologik integratsiya klasterning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish bosqichlari o'rtasida resurslar va ma'lumot almashinuvi optimallashtirilganida energiya sarfi kamayadi, tayyor mahsulotlarning raqobatbardoshligi ortadi. Innovatsion yechimlar, raqamli boshqaruv tizimlari va energiya tejamkor texnologiyalarning joriy etilishi klasterning barqaror ishlashini, sifatli ishlab chiqarishni va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, texnologik integratsiya yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Boshqaruv va hamkorlik mexanizmlari klasterning uzoq muddatli rivojlanishining institutsional poydevorini tashkil qiladi. Davlat-xususiy sheriklik modeli, klaster ichidagi boshqaruv tizimlari va ishtirokchilar o'rtasidagi koordinatsiya ishlab chiqarish jarayonlarini samarali muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Fermer xo'jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar, eksportchi tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi samarali hamkorlik innovatsion tarmoq munosabatlarini shakllantiradi. Investitsion muhitning jozibadorligi nafaqat mahalliy, balki xorijiy kapitalni jalb etish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, eksport hajmini oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini beradi.

Investitsion va innovatsion faollik klasterning dinamik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish klasterning modernizatsiya jarayonini tezlashtiradi. Shu yo'l bilan paxta-to'qimachilik zanjiridagi barcha bo'g'inlar qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatini maksimal darajada oshiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir klasterlarning hududiy rivojlanishga bevosita ta'sirini ifodalaydi. Klaster faoliyati natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy aholining daromadlari ortadi va hududiy bandlik darajasi yaxshilanadi. Shu bilan birga, eksport hajmi hamda mahalliy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishi klasterning iqtisodiy samaradorligini mustahkamlaydi, hududiy iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydi va mintaqaviy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarining rivojlanish sur'atlari va samaradorligi mintaqalar kesimida bir xil emas. Ushbu tafovutlar iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi. Hududiy tafovutlar asosan xomashyo resurslarining taqsimoti, ishlab chiqarish zanjiri darajasi, infratuzilma holati, investitsion faollik va ijtimoiy salohiyatning notekisligidan kelib chiqadi. Klaster tizimining samarali ishlashi uchun xomashyo yetkazib berish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichlari o'rtasidagi uyg'unlik muhim hisoblanadi. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish zanjiri to'liq shakllanmaganligi, logistika va transport infratuzilmasining sust rivojlanganligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Shu bilan birga, innovatsion va texnologik imkoniyatlarning notekisligi ham klasterlarning texnologik integratsiya darajasini cheklaydi, bu esa raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kamaytiradi. Investitsion va boshqaruv mexanizmlarining farqlanishi ham hududiy tafovutlarni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Har bir klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik

darajasi, davlat-xususiy sheriklik tizimi va investitsion muhitning jozibadorligi turlicha bo‘lishi natijasida rivojlanish sur‘atlari farq qiladi. Shu sababli, hududlar kesimida klasterlarni rivojlantirishda universal yondashuv emas, balki hududning o‘ziga xos resurs, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini hisobga oluvchi differensial yondashuv zarur. Bunday yondashuv klasterning resurslardan samarali foydalanishini ta‘minlaydi, ishlab chiqarish zanjirini optimallashtiradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda hududiy bandlik darajasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, hududiy tafovutlarni hisobga olish eksport salohiyatini kengaytirish, innovatsion imkoniyatlarni rivojlantirish va klaster tizimining barqaror ishlashini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda bir nechta strategik rivojlantirish modellari samarali hisoblanadi. Ushbu modellar klaster tizimidagi resurslar, ishlab chiqarish zanjiri bosqichlari, texnologik integratsiya, boshqaruv mexanizmlari va hududiy imkoniyatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Har bir model o‘ziga xos strategik maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning birgalikda qo‘llanilishi klaster tizimining iqtisodiy samaradorligini, eksport salohiyatini va hududiy bandlikni oshirishga imkon beradi. Quyida paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha asosiy modellarning tavsifi va ularning tarkibiy elementlari keltiriladi (2-jadval).

2-jadval

Paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha asosiy modellarning tavsifi¹

Rivojlantirish modeli	Asosiy vazifasi	Tarkibiy elementlari / Kirish komponentlari	Kutiladigan natijalar
Resurslardan kompleks foydalanish modeli	Xomashyoni chuqur qayta ishlash va ishlab chiqarish zanjirini yakuniy mahsulotgacha yetkazish orqali qo‘shilgan qiymatni maksimal darajada oshirish	Xomashyo yetkazib berish tizimi, ishlab chiqarish zanjiri, logistika infratuzilmasi	Tannarxni pasaytirish, resurslardan samarali foydalanish, qo‘shilgan qiymatni oshirish
Innovatsion-integratsion model	Ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish tizimlarini uyg‘unlashtirish, texnologik yangilanish va innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etish	Ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta‘lim markazlari, ishlab chiqaruvchi korxonalar	Texnologik yangilanish tezlashadi, ishlab chiqarish sifati va innovatsion samaradorlik oshadi
Hududiy diversifikatsiya modeli	Klasterlarning joylashuvini hududning tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirish va ishlab chiqarish zanjirini hududlar kesimida optimallashtirish	Hududiy resurslar, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyat, transport-logistika imkoniyatlari	Samaradorlik oshadi, ishlab chiqarish zanjiri optimallashtiriladi, eksport salohiyati kengayadi

¹ Muallif ishlanmasi

Rivojlantirish modeli	Asosiy vazifasi	Tarkibiy elementlari / Kirish komponentlari	Kutiladigan natijalar
Raqamli boshqaruv modeli	Raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish, logistika va marketing jarayonlarini boshqarish	Monitoring tizimlari, raqamli boshqaruv platformalari, analitik vositalar	Resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, jarayonlar uzluksiz ishlaydi

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir rivojlantirish modeli klaster tizimining barqaror ishlashida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Resurslardan kompleks foydalanish modeli ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida xomashyoni maksimal darajada qayta ishlash hamda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Bu esa tannarxni pasaytiradi va qo‘shilgan qiymatni oshiradi.

Innovatsion-integratsion model texnologik yangilanishni tezlashtiradi, ishlab chiqarish sifatini yaxshilaydi va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu tariqa klaster innovatsion salohiyatini oshiradi.

Hududiy diversifikatsiya modeli hududiy tafovutlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirish imkonini beradi. Bu model klasterlar joylashuvini hududning tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirish orqali samaradorlikni oshiradi va eksport salohiyatini kengaytiradi.

Raqamli boshqaruv modeli monitoring va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Raqamli tizimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, resurslardan optimal foydalanishni ta’minlaydi va klaster tizimining uzluksiz ishlashini kafolatlaydi.

Shu tarzda, ushbu modellarning integratsiyalashgan qo‘llanilishi paxta-to‘qimachilik klasterlarining barqaror rivojlanishi, hududiy bandlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy modellashtirish vositalari yordamida ushbu modellarning samaradorligi baholanadi va hududlar kesimida optimallashtirish tavsiyalari ishlab chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining barqaror rivojlanishi hududiy salohiyat, texnologik integratsiya va boshqaruv mexanizmlarining uyg‘unligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu omillarni kompleks qo‘llash klaster tizimining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, klasterlarni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan strategiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zarur. Bu esa ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida — xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot eksportigacha — samarali integratsiyani ta’minlaydi.

Shuningdek, innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyatini klaster tizimiga integratsiyalash, raqamli boshqaruv hamda monitoring tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi va sifat nazorati

sezilarli darajada oshiriladi. Davlat-xususiy sheriklik modeli va investitsion ragʻbatlarni kuchaytirish esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, eksport hajmini kengaytirish hamda hududiy barqarorlikni taʼminlashga yordam beradi.

Umuman olganda, paxta-toʻqimachilik klasterlarining rivojlanishiga kompleks yondashuvni qoʻllash, hududiy, texnologik va boshqaruv omillarini uygʻunlashtirish hamda innovatsion va raqamli yechimlarni tatbiq etish klaster tizimining uzoq muddatli barqarorligini taʼminlash va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYADALANILGAN ADABYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisid”gi. <https://lex.uz/en/docs/-6600413>

2. B. A. Paluanov et al., "Анализ характеристик технологических процессов хлопко-текстильного кластера," *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.*, vol. 3, no. 120, 2024.

3. C. Bozarth, J. Blackhurst, and R. Handfield, "Following the Thread: Industry Cluster Theory, the New England Cotton Textiles Industry, and Implications for Future Supply Chain Research," *Production and Operations Management*, vol. 16, no. 1, pp. 154–157, Jan. 2009.

4. K. E. Radjapov and B. K. Erkaeva, Особенности формирования и организационная модель региональных межотраслевых кластеров в текстильной промышленности, *Бюллетень науки и практики*, № 5; 2019.

5. T. L. Khalikov, Formation and Development of Regional Cotton-Textile Clusters, *Journals Contributions*, 2023.

6. B. A. Davlyatov, Prospects For Cotton and Textile Clusters in Uzbekistan, *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies*, Tashkent Institute of Textile and Light Industry, 2023.

7. S.I. Gryadov, I.V.Kovaleva. Agropromishlenniy klaster: Problemi i perspektivi razviti Y. *Vestnik Altayskogo Gosudarstvennogo universiteta* №4 (54). S.98-105.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**